

UMUMTA'LIM MAKTABLARI 5-8-SINFLARI UCHUN “KELAJAK SOATI” DARSLARINING 10-MAVZUSI SSENARIYSI

Mavzu: “Xavfsiz hayot”

Dars o‘tiladigan sana: 2025-yil 3-noyabr.

Annotatsiya

Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarda turli hayotiy vaziyatlarda shaxsiy xavfsizlikni ta‘minlash, xavf-xatarlarni oldindan sezish va ularning oldini olish bo‘yicha ongli munosabatni shakllantirishga qaratilgan. Dars davomida o‘quvchilar real hayotdan olingan misollar asosida xavfli vaziyatlarni tahlil qiladilar, ularning sabab va oqibatlarini aniqlaydilar hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish yo‘llarini o‘rganadilar. Mashg‘ulot jarayonida interaktiv metodlar, guruhiiy muhokamalar, rolli o‘yinlar va amaliy topshiriqlar orqali “Mening shaxsiy xavfsizligim” tushunchasi chuqurlashtiriladi.

Dars maqsadi: umumiy maqsad:

O‘quvchilarda “Xavfsizlik – bu mening shaxsiy mas‘uliyatim” degan tushunchani mustahkamlash va kundalik hayotda hushyorlik, ehtiyotkorlik hamda mas‘uliyatli xatti-harakatlarni shakllantirishdir.

Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda shaxsiy xavfsizlikning ahamiyatini anglash va unga mas‘uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini shakllantirish.
2. Turli hayotiy vaziyatlarda xavfni aniqlash, uning sabab va oqibatlarini tushunish hamda oldini olish yo‘llarini bilishga o‘rgatish.
3. Hushyorlik, ehtiyotkorlik va to‘g‘ri qaror qabul qilish odatini rivojlantirish.
4. O‘zini va boshqalarni himoya qilishga qaratilgan ijobiy xulq-atvorni mustahkamlash.
5. “Xavfsizlik – bu mening shaxsiy mas‘uliyatim” g‘oyasini kundalik hayotga tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilish.

Asosiy g‘oyalar: Har bir inson o‘z xavfsizligini ta‘minlash uchun kundalik hayotda hushyor va ehtiyotkor bo‘lishi, xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan sezishi va ularga to‘g‘ri munosabat bildirish kerak. Shaxsiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, xavf-xatar manbalarini tanish va ulardan chetlab o‘tish – hayot sifatini va salomatlikni saqlashning muhim garovidir. “Xavfsizlik – bu mening shaxsiy mas‘uliyatim” g‘oyasi o‘quvchilarga

o'z xatti-harakatlariga ongli yondashish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va boshqalarga yordam berish zarurligini anglatadi.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- O'quvchi shaxsiy xavfsizlik tushunchasini izohlab bera oladi.
- Xavfli vaziyatlar va ularning manbalarini aniqlashni biladi.
- Turli vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat modelini tushuntira oladi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O'z hayoti va sog'ligini qadrlash hissi kuchayadi.
- Hushyorlik, ehtiyotkorlik va mas'uliyatlilik sifatlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi.

- O'zini va boshqalarni himoya qilish istagi ortadi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- Xavfli vaziyatni baholash va to'g'ri qaror qabul qilish bo'yicha amaliy qadamlar qo'ya oladi.
- Xavfsizlik qoidalarini kundalik hayotda qo'llaydi.
- Guruh va jamoada xavfsizlikni ta'minlashga oid faol harakatlar bajaradi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Sinfda xavfsizlik madaniyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi.
- Do'stlari va atrofdagilarni xavfsizlikka rioya qilishga undaydi.
- "Xavfsizlik – umumiy mas'uliyat" tamoyiliga amal qilishga odatlanadi.

Metapredmet: ushbu mashg'ulot o'quvchilarda turli fanlar va hayotiy vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

- **Ona tili va adabiyoti:** xavfsizlikka oid hikoyalar, maqollar va real voqealarni tahlil qilish, xulosalar chiqarish.
- **Mantiqiy fikrlash:** xavfli vaziyatlarni aks ettiruvchi vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy bog'liqliklarni aniqlash va muqobil yechimlar taklif etish.
- **Ijtimoiy fanlar:** guruhda ishlash, muammoli vaziyatlarda hamkorlikda qaror qabul qilish, o'zaro yordam berish madaniyatini rivojlantirish.
- **Tanqidiy fikrlash:** turli xavf manbalarini baholash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, oqilona yechimlar ishlab chiqish.

Dars hamkori: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg'ulot shakli: O'quvchilarning faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi **interaktiv metodlar** qo'llaniladi. Mashg'ulot jarayonida "aqliy hujum", guruhiy muhokama, savol-javob, real vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan **keys-topshiriqlar** va rolli o'yinlardan foydalaniladi.

Materiallar to'plami:

- mashg'ulot ssenariysi,
- xavfli vaziyatlarni aks ettiruvchi real hayotiy vaziyatlarga oid videomateriallar,
- keys-topshiriqlar matnlari hamda rolli o'yinlar uchun vaziyat kartochkalari,
- "aqliy hujum" uchun savollar ro'yxati,
- flomasterlar,
- markerlar,
- varaqlar

Dars ssenariysi

Dars boshlanishidan avval o'quvchilarga qizil, sariq, yashil rangli kartochkalar to'plami va "Keys-stadi" uchun tarqatma materiallar tarqatiladi.

KIRISH. (5 daqiqa)

O'qituvchi: Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar. Bugungi darsimiz mavzusini aytib o'tishdan avval, keling, bir savol beray.

Ko'pchiligingizda telefon bor-a?

Bolalar: Haa!

Selfi nimaligini bilasiz va selfi qilib turasizlar-a?

Bolalar: Haa!



O'qituvchi: Mana bu ruminiyalik blogger Anna Ursu. U 2025-yilning 15 may kuni hammani lol qoldiradigan selfi tushirib Instagramga joylash maqsadida elektropoyezd tomiga chiqadi va elektr simiga tegib ketib yonib ketadi. Afsus!

Internetda selfi tufayli sodir bo'lgan fojialar haqida ko'plab xabarlar bor. Dunyo bo'yicha selfi qilish paytida halok bo'lgan insonlar soni akula hujumidan halok bo'lganlardan bir necha barobar ko'p ekan. Nahotki? Biz oddiy holat deb o'ylagan odatimiz ortida shunday xavf bor? Afsuski, shunday. Agar xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasa, oddiy selfi payti ham jiddiy fojialar bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarda (Tik-tok yoki Instagramda) har kuni turli "trendlar" chiqadi: "1000 ta layk uchun tomdan sakra", "Videoga olish uchun xavfli joyga chiq". Lekin shu 1000 ta laykning qaysi biri o'sha odamlarga hayotini qaytarib beradi?

(O'quvchilar jim, o'qituvchi davom etadi.)

O'qituvchi: Bugun biz shunday savollarga javob izlaymiz: nima bizni xavfga olib kiradi, nima esa himoya qiladi? Hayotimizdagi eng oddiy, lekin eng muhim so'z – xavfsizlik haqida suhbatlashamiz.

Biz xavfsizlik haqida gapirganimizda, ko'pincha o'zimiz xavfsizlikni ta'minlashda qanchalik ko'p ishlar qilishimiz mumkinligini bilmaymiz. Oddiy ekologik madaniyat orqali sayyoramiz xavfsizligini va sog'lig'imizni ta'minlashimizni bilasizlarmi? Kelinglar, mashhur ekofaol va bloger Mo'tabar Xushvaqtova (O'rik Guli) dan ekologik xavfsizlik haqida tavsiyalarni eshitamiz.

Vizual kontent

"Yashil bog' uchun kurashganmiz" – Mo'tabar Xushvaqtova

<https://youtu.be/VQ-er6AHh8w?si=mXovKnNrbZQVbod2>

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar, bugun biz sizlar bilan "xavf" va "xavfsizlik" haqida gaplashamiz. Hozir sizdan xavf va xavfsizlik so'zlarini eshitganingizda xayolingizga eng birinchi nima kelishi haqida aytishingizni so'rayman.

- Xavf nima?
- Xavfsizlik-chi?
- Qanday xavfli holatlarni bilasiz?
- Odatda xavfli holat yuzaga kelganda, odamlar o'zini qanday tutadi?

(o'quvchilarning javoblari doskada qayd qilib boriladi)

ASOSIY QISM. (30 daqiqa)

O'qituvchi: Barakalla! Hamma fikrlar to'g'ri. Agar xulosa qiladigan bo'lsak, xavf – insonga yoki uning atrofidagi narsalarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatdir. Ya'ni xavf – bu tahdid, xatar. Masalan, svetoforming qizil chirog'i yonayotganda yoki piyodalar o'tish joyi bo'lmagan joyda yo'lni kesib o'tish xavfli

hisoblanishini hammamiz bilamiz. Elektr vilkasini nam qo‘l bilan ulashga harakat qilish, telefondan foydalanish, gaz plitasini yoqib, uni nazoratsiz qoldirish ham jiddiy xavf tug‘diradi. Ba‘zan internetda notanish odamlar bilan shaxsiy ma‘lumotlarni bo‘lishish ham ko‘rinmas, lekin jiddiy xavfli holat hisoblanadi. Bunday holatlar tanamizga, sog‘lig‘imizga, hatto hayotimizga zarar yetkazishi mumkin.

Xavfsizlik esa – bu hech qanday xavf, xatar yo‘q holat. Bunda inson xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda o‘z ishini bajaradi. Masalan, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish, maishiy texnikalaridan foydalanayotganda texnika xavfsizligiga rioya qilsa – xavfsizlikka erishilgan bo‘ladi.

Bugungi hayotimizda xavf-xatarlar juda ko‘p. Ilgarigi zamonlarda yirtqich hayvonlarga yem bo‘lish, ilon chaqishi kabi xavflar ko‘p bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda odamlarga avtomobil g‘ildiragi ostida qolish, to‘g‘ri saqlanmagan doridan zaharlanish kabi holatlar xavfli holatga olib keladi.

Yurtimizda aholi xavfsizligini ta‘minlash uchun bir qator ishlar amalga oshirilyapti. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Xavfsiz shahar” va “Xavfsiz ta‘lim muassasasi” kabi muhim dasturlar yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu loyihalar asosida shahar va tumanlarda videokuzatuv kameralari o‘rnatilmoqda, favqulodda holatlar yuz berganda tezkor axborot almashish va javob berish tizimlari tashkil etilgan. Bu ishlar orqali jinoyatlarning oldini olish, yo‘llarda xavfsiz harakat qilish, maktab va bog‘chalarda bolalar hayotini himoyalash bo‘yicha katta natijalarga erishilyapti.

Bu islohotlarning asosiy maqsadi – xalqimizning tinch, erkin va xavfsiz hayot kechirishiga zamin yaratishdir. Bu nafaqat jinoyatlarga qarshi kurash, balki har bir fuqaroning hayoti, sog‘lig‘i va erkinligini himoya qilishni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Har birimiz xavfsizlik haqida bilishimiz va buni hayotda amalga oshirishni o‘rganishimiz kerak. Bu biz tug‘ilishimiz bilanoq bilib qoladigan narsa emas. Xavfsizlik madaniyati butun hayot davomida o‘rganiladi. Inson – aqlli mavjudot. U xavf-xatarni his qiladi, vaziyat qanday rivojlanishini oldindan taxmin qilib, to‘g‘ri qaror qabul qila oladi.

Xavfsiz hayot tarzi – bu xavfni oldindan ko‘rib, uning oldini olish, zararni kamaytirish va oqibatlarini bartaraf etish demakdir.

Xavfsizlik madaniyatiga ega inson:

- o‘zini ehtiyot qiladi;
- boshqalarga xavf tug‘dirmaydi va xavfga duchor bo‘lmaydi;
- tabiatga ham ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘ladi.

Xavf ogohlantirib kelmaydi, uning qayerdan kelishi mumkinligini inson aql-farosati orqali biladi yo his qiladi. Xavf ko‘p keladigan nuqtalarni bilib

olishingiz va o'sha yerlarda ehtiyotkor bo'lishingiz kerak. Kelinglar, shu haqida bir video ko'ramiz.

Vizual kontent

Xavf nuqtalari 2-qism

https://youtu.be/iMCXeQ7VMME?si=krKuD5ZHOFDQ_jp0

O'qituvchi: Lekin shuni ham aytib o'tish kerakki, xavflar ham ikki xil bo'ladi:

1. Insonga bog'liq bo'lmagan ravishda yuzaga keladigan xavflar.
2. Insonlarning noto'g'ri xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan xavflar.

Hozir insonga bog'liq bo'lmagan ravishda yuzaga keladigan xavflarni aytib o'tamiz.

Insonga bog'liq bo'lmagan ravishda yuzaga keladigan xavflar. Bular tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqini), kutilmagan kasalliklar yoki boshqa insonlarning bizga bog'liq bo'lmagan xatti-harakatlari bo'lishi mumkin.

1. Insonlarning noto'g'ri xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan xavflar. Bular bizning yoki boshqa insonlarning e'tiborsizligi, mas'uliyatsizligi, bilimsizligi yoki noto'g'ri qarorlari tufayli kelib chiqadi. Masalan, yo'l harakati qoidalarini buzish natijasidagi baxtsiz hodisa yoki elektr anjomlarini qarovsiz qoldirish natijasida kelib chiqadigan yong'in.

– Tadqiqotlar o'smirlar oladigan jiddiy jarohatlarning qariyb yarmi ularning o'z xatolari (xavflari) yoki uyda, maktabda va transportda qabul qilingan qoidalarini buzishlari bilan bog'liq ekanligini ma'lum qiladi.

– Masalan, dunyo bo'yicha o'smirlar va yoshlar orasida o'limning asosiy sabablari jarohatlar (shu jumladan, yo'l-transport hodisalari bilan bog'liq) hisoblanadi.

Xuddi shu kabi, ko'chadagi notanish insonlar ham xavf manbai bo'lishi mumkin, ayniqsa, ular tekinga yegulik yoki buyum tarqatayotgan bo'lsalar. Hech qachon ko'chada begona inson beminnat bergan narsani olmang. Balki avvallari xavflar umuman boshqacha bo'lgan paytlari bollar ko'chada begona otaxon yoki onaxon uzatgan konfetni olib yeyishlari mumkin bo'lgandir. Ammo hozir notanish mahsulot tarkibida turli zararli va o'ziga o'rgatib oluvchi mahsulotlar borligi va bu orqali bolalarni turli sintetik narkotiklarga o'rgatish kabi salbiy holatlar kuzatilgani uchun yangi xavfsizlik qoidasi paydo bo'ldi:

BEGONA ODAMDAN HECH NARSA OLMANG!

Endi esa sizlar bilan bir ijtimoiy tadqiqotni tomosha qilamiz. Bu video ogohlik va hushyorlik naqadar muhimligini tushunishingizga yordam beradi.

Vizual kontent

Eksperiment: qay darajada hushyorsiz?

<https://youtu.be/93A1fK0RTt8?si=BMQfazt7cN9tBbbU>

Video muhokama qilinadi (2 daqiqa)

Keys-stadi. Guruhlarda ishlash

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar! Siz hayotingiz uchun xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini bilasizmi? Keling, birgalikda keyslarni yechamiz.

O‘quvchilar qatorlari bo‘yicha guruhlariga bo‘linib, vaziyatlarini tahlil qiladilar. Buning uchun o‘qituvchi guruhlariga tayyor keyslar va ularga savollar yozilgan kartochkalarni tarqatadi. Javob, xavf va to‘g‘ri xulosa joyini o‘quvchilar o‘zlari to‘ldiradilar. So‘ngra o‘qituvchiga beradilar. (Ilovaga qaralsin)

O‘qituvchi:

Endi esa sizlar bilan bir qiziq o‘yin o‘ynaymiz.

“Iroda – aql – qiziqish” rolli o‘yini

O‘qituvchi uch nafar ko‘ngilli o‘quvchini Iroda, Aql va Qiziquvchanlik rollariga taklif etadi.

O‘qituvchi: Murakkab qaror qabul qilishimiz kerak bo‘lganda, ichimizda ikki kuch kurashadi – Qiziquvchanlik va Iroda.

Qiziqish: “Sinab ko‘r”, deydi.

Iroda: “Kerak emas!” deb shivirlaydi.

Biroq, qarorni **Aql** qabul qiladi.

Endi tasavvur qiling, siz uchovingiz – bu bir odam, to‘g‘ri qaror qabul qilishga urinayotgan o‘smirsiz. Hammasi kimning ko‘proq ishontiradigan dalillar keltira olishiga bog‘liq bo‘ladi – QIZIQUVCHANLIKMI, IRODAMI yoki AQL. Qani, vaziyatni tinglang... (o‘qituvchi vaziyatni o‘qib eshittiradi):

Sinfdoshlaringiz TikTok uchun “chellenj” tayyorlashmoqda. Ular jamoat joyida xatarli ish qilishni rejalashtirishgan – masalan, maktabning yong‘in signalini bosib, videoga olish. Ular Sizni ham chaqirishdi: “Bu shunchaki hazil! Agar qilmasang, sen bilan o‘rtoq bo‘lmaymiz!”

Marhamat, Qiziquvchanlik o‘zining ishini qilib maslahatini shivirlasin.

Qiziquvchanlik rolidagi bola qiziqtiruvchi gaplarni aytadi.

Endi esa Iroda o‘z gapini aytsin.

Iroda bu ishdan qaytarishga harakat qiladi.

Aql nima deydi oxirida?

Aql xulosa qiladi.

O‘qituvchi:

Endi esa ekranga e’tibor qaratamiz va mashhurlardan xavfsizlik tavsiyalarini eshitamiz.

Vizual kontent

Chellenj: Yo‘l qoidalariga amal qiling

https://youtu.be/SBUcB6TaeFw?si=o0h-WNwhEw_OqkOZ

Xatarli xatti-harakat

O‘quvchilarga “Xavf bor”, “Xavf yo‘q”, “50:50” tayyor javob variantlari yozilgan kartochkalar yoki qizil (Xavfli), sariq(50:50) va yashil (Xavf yo‘q) kartochkalari tarqatiladi. O‘quvchilarga vaziyatlar o‘qib eshittiriladi. Ishtirokchilar xavf darajasini baholashlari va kartochkalarni ko‘tarish orqali “ovoz berishlari”, ya’ni o‘z fikrlarini bildirishlari kerak.

O‘qituvchi: Hozir men sizlarga bir nechta muammoli vaziyatlarni o‘qib eshittiraman. Har bir vaziyatdan so‘ng, siz o‘zingizning fikringizga ko‘ra **kartochka ko‘tarish orqali “ovoz berasiz”**:

- Agar bu vaziyatni xavfli deb hisoblasangiz – qizil kartochkani ko‘taring.
- Agar bu vaziyatni xavfsiz deb hisoblasangiz – yashil kartochkani ko‘taring.
- Agar ikki holat ham mumkin, deb o‘ylasangiz – sariq kartochkani ko‘taring.

Har bir vaziyatga men 3 gacha sanagunimcha javob berishingiz kerak. Tayyormisizlar? Unda boshlaymiz!

Vaziyatlar:

1. Pirotexnik vositalarni portlatish;
2. Parashyutdan sakrash;
3. Elektron sigaret chekish;
4. Kech tushganda ko‘chada (bog‘da) yolg‘iz yurish;
5. Notanish insonning mashinasiga o‘tirish;
6. Ketayotgan avtobus ortidan yugurish;
7. Notanish inson iltimosiga ko‘ra o‘z mobil telefonini shoshilinch qo‘ng‘iroq uchun berish;
8. Tomda selfi qilish;

Har bir vaziyat o‘qib eshittirilgandan so‘ng, ishtirokchilar mos javob variantini tanlab, kartochkalarni ko‘tarishadi. Shundan so‘ng, quyidagi savollar beriladi:

- Nega bu vaziyat xavfli/xavfli emas?

- Nima bu vaziyatni xavfli qiladi?
- Nima bu vaziyatni xavfsiz qiladi?
- Vaziyatda xavfni kamaytirish uchun nimalarni bilish kerak?
- Vaziyatda xavfni kamaytirish uchun nima qilish kerak?
- Nima uchun ba'zi insonlar tavakkal qilishga tayyor bo'ladilar?
- Har qanday vaziyatni xavfli deb hisoblash mumkinmi?

Savollar o'quvchilarning "xavf" tushunchasi ishtirok etayotgan insonlarning xatti-harakati bilan qanday bog'liq ekanini tushunib yetgunlaricha beriladi.

Endi esa, bolajonlar, xavflarning eng jiddiylaridan bo'lgan yong'in va uni o'chirishga doir mashg'ulot haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Favqulodda vaziyatlar guvohiga aylaning!

https://youtu.be/cen63U1oXiU?si=h6Yrx8wjiUmQ_Rn

3. YAKUNIY QISM. (5 daqiqa)

Bugun biz sizlar bilan hayotimizda uchrashi mumkin bo'lgan turli xavfli holatlar, ularning sabablari va oqibatlari haqida gaplashdik. Shuni unutmangki, xavf – bu faqat tashqi omil emas. Ko'p hollarda xavf insonning o'zi tomonidan keltirib chiqariladi – bilimsizlik, e'tiborsizlik, yoki "hamma shunday qilyapti" deb o'ylashi natijasida.

Shuni esda tutishimiz kerak: xavfsizlik – bu tanlov. Har bir qarorda – "qilsammi yo yo'qmi?" degan paytda – aql bilan o'ylab, o'z hayotimizni asrashni tanlashimiz kerak.

Shaxsiy xavfsizlik – har bir insonning hayotidagi eng katta mas'uliyatlardan biridir. Bu faqat o'zingizni emas, atrofingizdagilarni ham himoya qilish demak.

1-keys. “Tomdagi selfi”

Vaziyat. Behzod va Sherzod kechqurun 16 qavatli uyning tomiga chiqishga qaror qilishdi. Ular Nodirni ham ko‘ndirishga harakat qilishdi: “Telefonni tayyorla, shunday selfi qilamizki, TikTokda portlaydi!” – dedilar.

Tomga chiqish taqiqlangan, lekin eshik ochiq edi. Nodir ikkilanyapti: chiqsammi, chiqmasammi...

Savol. Nodir qanday qaror qabul qilishi kerak?

Javob.

Xavf

To‘g‘ri

xulosa

2-keys. 2-keys: “Poyezd orqasida sayr”

Mahalladagi bolalar qishloqning oxiridan o‘tadigan temir yo‘lga borib, poyezdlarga tashqaridan osilib uchishni rejalashtira boshlashdi. Imron: “Sen ham osilasanmi?” degan savol bilan Jasurga murojaat qildi. “Men internetda ko‘rdim, maza qilamiz va videoga olamiz!” – deydi.

Savol. Jasur qanday xavfsiz qaror qabul qilishi mumkin?

Javob.

Xavf

To'g'ri
xulosa

3-keys. "Onlayn "sovg'a", keltirar g'avg'o"

Vaziyat. Munira telefoniga bepul video-o'yin yuklab oldi. Biroz vaqtdan so'ng ilova orqali "yangi tanish" kimsalar undan shaxsiy ma'lumotlarini so'rab, o'yinda g'oliblik va "sovg'a" taklif qilishdi.

Savol. Muniraning xato xulqi nimada?

Javob.

Xavf

To'g'ri
xulosa

4-keys. "Sherjon va zararli taklif"

Vaziyat. Sherjon do‘stlari bilan davrada o‘tirardi. Ulardan biri elektron sigaret yoki yengil alkogolli ichimlik taklif qilib, Sherjonga: “Kel, bir tatib ko‘r, hech narsa qilmaydi, shunchaki zavqlanasan!” deb qistay boshladi.

Savol. Bu vaziyatda Sherjonning xavfsiz xulqi qanday bo‘ladi?

Javob.

Xavf

To‘g‘ri

xulosa

Keys-stadi javoblari

1-keys. Tomdagi selfi

Vaziyat. Behzod va Sherzod kechqurun 16 qavatli uyning tomiga chiqishga qaror qilishdi. Ular Nodirni ham ko'ndirishga harakat qilishdi: "Telefonni tayyorla, shunday selfi qilamizki, TikTokda portlaydi!" – dedilar.

Tomga chiqish taqiqlangan, lekin eshik ochiq edi. Nodir ikkilanyapti: chiqsammi, chiqmasammi...

Savol. Nodir qanday qaror qabul qilishi kerak?

Javob. Nodir tomga chiqmasligi, do'stlarini ham to'xtatishi va bu vaziyatni kattalarga xabar qilishi kerak. Layk olish hayotdan muhim emas.

Xavf. Qulab tushish, jarohat olish, hatto o'lim xavfi bor. Yuqorida selfi olish vaqtda to'siqlarning bo'lmasligi ehtimoli, shamol, qorong'ilik va boshqa omillar xavfni oshiradi.

To'g'ri xulosa. Layk olish hayotdan muhim emas.

2-keys: "Poyezd orqasida sayr"

Mahalladagi bolalar qishloqning oxiridan o'tadigan temir yo'lga borib, poyezdlarga tashqaridan osilib uchishni rejalashtira boshlashdi. Imron: "Do'stim, sen ham osilasanmi?" degan savol bilan Jasurga murojaat qildi. "Men internetda ko'rdim, maza qilamiz va videoga olamiz!" – deydi.

Savol. Jasur qanday xavfsiz qaror qabul qilishi mumkin?

Javob. Jasur do'stlari bilan bormasligi, do'stlarini ham to'xtatishi va bu vaziyatni kattalarga xabar qilishi kerak. Layk olish hayotdan muhim emas.

Xavf. Qulab tushish, jarohat olish, hatto o'lim xavfi bor. Harakatlanayotgan transport vositasi xavf darajasini yanada oshiradi.

To'g'ri xulosa. Harakatlanayotgan transportga yaqinlashmaslik, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish muhim.

3-keys. "Onlayn "sovg'a", keltirar g'avg'o"

Vaziyat. Munira telefoniga bepul video-o'yin yuklab oldi. Biroz vaqtdan so'ng ilova orqali "yangi tanish" kimsalar undan shaxsiy ma'lumotlarini so'rab, o'yinda g'oliblik va "sovg'a" taklif qilishdi.

Savol. Muniraning xatosi nimada?

Javob. Internet xavflarini yetarlicha bilmaslik, shaxsiy ma'lumotlarni begonalarga berish.

Xavf. Shaxsiy ma'lumotlarning suiiste'moli, onlayn firibgarlik, tahdidlar.

To'g'ri xulosa. Har qanday ilova, o'yin, yoki shaxs sizning ma'lumotlaringizni so'rasa, darhol bu haqda kattalarga xabar berish kerak. Internet xavflaridan himoyalanişda juda hushyor, ehtiyotkor bo'lish kerak.

4-keys. Sherjon va zararli taklif

Vaziyat. Sherjon do'stlari bilan davrada o'tirardi. Ulardan biri elektron sigaret yoki yengil alkogolli ichimlik taklif qilib, Sherjonga: "Kel, birmazasini ko'r, hech narsa qilmaydi, shunchaki zavqlanasan!", deb qistay boshladi.

Savol. Bu vaziyatda Sherjonning xavfsiz xulqi qanday bo'ladi?

Javob. Sherjon qat'iy va ishonchli "Yo'q!" deyishi kerak. U bunday moddalarning sog'liqqa zarar ekanligini tushuntirishi yoki shunchaki **"Men buni qilmayman"**, deb aytishi mumkin. Agar do'stlari bosim o'tkazishda davom etsa, Sherjon bu joyni tark etishi va bu haqda kattalarga (masalan, ota-onasiga yoki ishongan boshqa qarindoshiga) xabar berish orqali o'zini himoya qilishi kerak.

Xavf. Zararli odatlarga o'rganib qolish, sog'liqqa jiddiy zarar yetkazish, kelajakda muammolarga duch kelish, o'ziga bo'lgan ishonchni yo'qotish.

To'g'ri xulosa. Shaxsiy chegaralarni belgilash va zararli takliflarni qat'iyat bilan rad etish sog'lom turmush tarzining asosidir. Har qanday bosimga qarshi tura olish va o'zini himoya qila bilish – shaxsiy xavfsizlikning muhim kafolatidir. Haqiqiy do'stlar Sherjonning qarorlarini hurmat qiladilar va uni zararli yo'llarga tortmaydilar.